

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	335
<b>M.A.Kuchkarova</b>	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения .....	338
<b>Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova</b>	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari .....	342
<b>K.Sh.Nishonova</b>	
Boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lim va uning turlari.....	347
<b>A.R.Dilbarjonov</b>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari .....	350
<b>I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova</b>	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasi .....	354
<b>M.M.Abdumannopov</b>	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari .....	358
<b>T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova</b>	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari ....	362
<b>N.A.Qodirova</b>	
Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida).....	366
<b>Z.N.Ortiqova</b>	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari .....	370
<b>M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva</b>	
Ta'limda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rmi .....	377
<b>I.Kirgizov</b>	
"Ey sabo" – komil insonga aksiologik yondashuv.....	381
<b>A.T.Karimov</b>	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari .....	386
<b>A.M.Nurmuxammadjonov</b>	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati.....	390
<b>M.M.Najmetdinova</b>	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari .....	396
<b>M.Kurbanova</b>	
Dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari.....	400
<b>X.M.Shermatova</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati .....	403
<b>T.N.Shokirov</b>	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi .....	407
<b>B.M.Qurbonova</b>	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar .....	410
<b>L.Sh.Shukurova</b>	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlar va uning ilmiy tahlili.....	415
<b>A.A.A'zamjonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rmi .....	419
<b>A.A.Abdisattorov</b>	
Musiqi fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari .....	422
<b>I.D.Rustamov</b>	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rmi (Doira cholg'usi misolida).....	428
<b>A.A.Ergashev</b>	
Vokal-xor ta'limida finale-2003 dasturining qo'llanishi.....	432
<b>A.A.Mamurov</b>	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari .....	438



UO'K: 37.015.3 (075)

**JAMIYATNING YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA YOSHLAR MUSIQIY TAFAKKURINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI****НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА****THE NEED TO RAISE THE MUSICAL THINKING OF THE YOUTH AT THE NEW STAGE OF SOCIETY'S DEVELOPMENT****Nurmuxammadjonov Axmadjon Maxmudovich** 

Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasini dotsent

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish kerakligi haqida keng yoritib o'tilgan. O'zbek musiqiy san'atimizni yoshlar ongiga chuqurroq singdirish, maqom san'atining naqadar go'zalligini, anglatish, uning mo'jizakorligi bu qadimiy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, uni yoshlarga bezavol yetkazish borasidagi ezgu sa'y-harakatlar milliy maqom san'ati rivojiga ko'rsatilayotgan g'oyat ulkan e'tibor va g'amxo'rliklar ushbu maqolada yorqin ifodasini topgan.

**Аннотация**

В данной статье широко освещена необходимость поднятия музыкального мышления молодежи на новом этапе развития общества. Это благородная попытка внедрить наше узбекское музыкальное искусство в сознание молодежи, передать красоту и чудо статусного искусства, сохранить наше древнее наследие, как зеницу ока, и передать его молодежи, большое внимание и забота, проявленные к его развитию, ярко выражены в этой статье.

**Abstract**

In this article, the need to raise the musical thinking of young people in the new stage of development of the society has been extensively covered. It is a noble effort to inculcate our Uzbek musical art in the minds of young people, to convey the beauty and wonder of the art of status, to preserve our ancient heritage like the apple of an eye, and to convey it to the youth. the great attention and care shown to its development is clearly expressed in this article.

**Kalit so'zlar:** maqom, musiqa merosi, musiqiy tafakkur, an'anaviy san'at, shashmaqom**Ключевые слова:** статус, музыкальное наследие, музыкальное мышление, традиционное искусство, шашмаком.**Key words:** status, musical heritage, musical thinking, traditional art, shashmaqom**KIRISH**

Musiqa san'atida cholg'ularning o'ziga xos o'rni bo'lib, talaba-yoshlar ma'naviy-dunyoqarashlarini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa asarlari shunday ulkan tarbiyaviy kuchga egaki, uning tarbiya vositasi sifatidagi ulkan ta'sirchan kuchi bugungi kunda mamlakatimizda kamol topayotgan yoshlarning badiy-estetik tafakkuriga ta'siri masalasi dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Musiqiy ohanglar zamirida yashirinib yotgan obrazlar tinglovchining hayolida, ichki ruhiy kechinmalari va tasavvurida qayta jonlanib, ma'naviy-axloqiy va estetik kamolotga erishishida katta yordam beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

alaba-yoshlarning musiqiy madaniyatini rivojlantirish ucnun tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-ma'naviy shart-sharoitlarni yaratish, ularning har jihatdan kamol topishlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi "O'zbekiston yoshlari – 2025 konsepsiyasi"ni ishlab chiqarish zaruriyatlarini vujudga keltirdi.

Mustaqillik yillarida respublikada milliy ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Ta'lim tizimining asosiy maqsadi bo'lgan jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, mustaqil fikirlaydigan barkamol yo'sh avlodni tarbiyalash uchun mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g'oyalarni dadil o'rtaga tashlab ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga mo'yil bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at va sport sohasidagi istedod va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning jamiyatimizning iltimoiy-siyosiy xayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustivor ahamiyat bermoqdamiz.

Rivojlanayotgan demokratik jamiyatimiz ijtimoiy xayotida muhim o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, huquqiy jamiyatni barpo etish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. CHunonchi, ta'lim-tarbiya jarayoni mazmuniga milliy istiqloq mafkurasi g'oyalarini singdirish, yoshlarni milliy qadriyatlar, an'analar va ko'p asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Inson xayotini musiqasiz tasavvur qilish qiyin chunki go'dak dunyoga keldimi, eng avvalo, ona allasini tinglaydi. Ruhshunos olimlarning e'tirof etishlaricha, go'dakka alla ohangi orqali ona qalbidagi barcha go'zal fazilatlar, shuningdek, onada qanday qobiliyatlar va iqtidor bo'lsa hammasi farzand ruhiyatiga o'tar ekan. Buyuk kompozitor Volfgan Amadey Motsart yetti yoshida opera yaratganini yozgan. Lekin uni keyinchalik qaerdadir eshitgandek his qilibdi o'zini. SHunda u bu holatini onasi bilan dardlashganda, validasi ushbu qo'shiqni alla o'rnida aytganini hikoya qilib bergan ekan. SHu bois, ko'pincha san'atkorlar oilasida san'atkor dunyoga kelsa ajablanmasa ham bo'ladi. Bu o'rinda yana bir voqeani eslash mumkin. O'zbek xalqining buyuk san'atkori va bastakori Yunus Rajabiyning otasi Rajabboy ota Toshkentning Beshyog'och dahasida "Novza" guzarida bog'bon sifatida tanilgan. U kishi san'atni juda ham yaxshi ko'rgan ekan. Rajabboy otaning xonadoniga samarqandlik mashhur hofiz Hoji Abdulaziz ota mehmon bo'lib kelgan ekan. Oilada yosh go'dak Yunus tug'ilganda Rajabboy ota farzandini san'atkor qo'shiqchi bo'lishini orzu qilib o'sha davrda mashhur bo'lgan andijonlik hofiz va sozanda Mirqosim hofizni Toshkentga ko'chirib olib kelib, o'z bog'idan joy bergan ekan. Bundan tashqari, Yunus Rajabiyilarga mashhur sozandalar Mullato'ychi Toshmuhamedov, Shoraxim Shoumarov, usta Shobarot tanburchi ham qo'shni bo'lgan ekanlar. Demak, san'atkorning tug'ilishi uchun ijtimoiy muhit ham muhim ahamiyat kasb etar ekan. Musiqa insonni tarbiyalaydi. Musiqa inson ma'naviyatini namoyon etadi. Musiqa vositasi orqali boshqa ta'sir etuvchi omillar (so'z, harakat va boshqalar) bilan berib bo'lmaydigan his, tuyg'ularni o'zgalarga yetkazish mumkin. Shuning uchun ham g'amgin, tushkinlikka tushgan kishining ko'nglini ko'tarishda og'zaki pand-nasihatga qaraganda mumtoz kuy va qo'shiqlar inson ruhiyatiga maqsadli ta'sir qilishi avlodlarimizga qadimdan ma'lum. Vatanparvarlik, xalqparvarlik ruhi bilan sug'orilgan kuy-qo'shiqlar bunyodkorlik, xalq xizmati yo'lida bel bog'lab xormay-tolmay mehnat qilishga undasa, yovuz niyatli dushmanga qarshi kurash kayfiyati bilan bitilgan musiqa kattayu-kichikda beqiyos kurashchanlik tuyg'usini uyg'otadi.

Kuy va musiqaning inson vujudiga ta'siri, dastavval, eshitish a'zolari orqali qabul qilinadi. Ularning o'ziga xos xususiyatlarini (yoqimli, yoqimsiz, baland, past, tez, sekin va xakazo) tahlil qilishda ushbu analizatorning bir yo'la chetki qismlari (bosh miya yarim sharlarining po'stloq va po'stloq osti yadrolari) ishtirok etadi. Kuy va musiqaning xususiyatlaridan kelib chiqib kishi ruhiyatida kuzatiladigan psixofiziologik holatlar aytib o'tilgan analizator faoliyatiga, ya'ni uning qator funktsional xususiyatlariga yaqindan bog'liq. SHu fikrlardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, yoshlarni musiqa vositasi bilan ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash samaradorligini oshirishda kuy va qo'shiqlarni inson organizmiga ta'sir etadigan murakkab qo'zg'atuvchi omil sifatida ayrim psixofiziologik jihatlarni hisobga olish va ularga ijrochilar hamda eshituvchilar tomonidan ongli munosabatta bo'lish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Musiqa, kuy va qo'shiqlar quloq orqali, tovush qitqlagichlari sifatida o'zlarining fizikaviy parametrlariga (tebranish chastotasi, amplitudasi, davri baland-pastligi, davomiyligi va boshqalar) ko'ra markaziy nerv tizimida tegishli qo'zg'alishlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ularning ayrimlari kishiga huzur-halovat bag'ishlasa, boshqalari oromini buzib, behuzur qiladi, jirkanish uyg'otadi. Ushbu holatlarning kelib chiqish mexanizmlarini fiziologik asoslashda hozirgi zamon biologiyasida ustivor yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblangan stress ta'limotiga ko'ra fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ta'limot asoschisi kanadalik olim Gans Selening e'tirof etishicha o'simlik, hayvon va odam organizmiga ta'sir etuvchi har bir omil (issiq yoki sovuq harorat, jismoniy harakat, shovqin-suron, ruhiy iztiroblar, och qolish va hakazo) ta'sir etish vaqti va kuchi ma'lum

darajadan (me'yordan) oshganidan keyin, vujudga ularga nisbatan himoya refleksini yuzaga keltiradi. Ushbu refleks asosida quyidagi uchta morfofunktsional o'zgarishlar yotadi, ular: 1) buyrak usti bezlarining kattalashib qonga oshiqcha miqdorda garmonlar (adrenalin, kortikosteron va boshqalar) chiqarilishi; 2) ayrisimon bez (timus) va limfatik tugunlarning burishib-tortishib qolishi; 3) oshqozon-ichaklarda mayda yarachalarni paydo bo'lishi. Ushbu holatlarni keltirib chiqaradigan qo'zg'atuvchilarni stressorlar, organizmni ularga nisbatan javob reaksiyasini esa stressreaktsiyalar deb aytiladi. Masalan, musiqa tovushi-stressor, u tufayli paydo bo'ladigan holatlar (kayfiyatning yaxshi-yomonlashishi, mamnun bo'lish yoki asabiylashish va shunga o'xshashlar) stressreaktsiyalardir. SHuni ham aytib o'tish kerakki, stress holat yoki stress reaksiya haqida so'z ketganda ko'pchilik uni organizm uchun zararli deb o'ylashadi, lekin bu noto'g'ri fikr. Gans Sele ta'limotiga ko'ra, stress ikki hil bo'lib, birinchisi foydali stress yoki yeustress, ikkinchisi-zararli stress yoki distress deyiladi.

Bunday farqni musiqa misolida sharhlasak yoqimli, xushkayfiyat beruvchi kuy yeustress bo'lsa, bosh og'ritib, ko'ngil aynituvchi-distressdir.

Stress uyg'otuvchi omillar yoki stressorlarning xususiyatlariga qarab (davomiyligi, kuchi va boshqalar) stress holati uch davrda o'tadi, bular: tashvishlanish, rezistentlik yoki moslashish hamda holdan toyish davri. SHu davrlarning tabiatiga qarab stressreaktsiya yeustress yoki distressga aylanadi. Birinchi davrda qonda adrenalin ko'payib yurak urishi, nafas olish tezlashadi va qon bosimi ko'tariladi. Stressor ta'sir etishi davom etaversa qayt qilingan funktsiyalar o'zgarishlar me'yorga kelib, ikkinchi davrga o'tiladi. Bunda barcha xayotiy jarayonlar turg'un va mo'tadil holatga kelib mavjud holatga moslashib yoki adaptatsiyalanish yuzaga keladi. Agar kuchli stressor davomli ta'sir qilaversa, ushbu holatda toyish davri kelib chiqadi. Bu davr organizm uchun xavfli bo'lib, agar stressor ta'siri to'xtatilmasa, inson qator kassalliklar orttirishi va hatto halok bo'lishi ham mumkin. Masalan, laboratoriya hayvonlari (kalamush, sichqon va boshqalar) kuchli shovqin yoki baland rok musiqa tovushi ta'sirida majburan ushlab turilganida dastlab tinchini yo'qotib nihoyatda bezovta bo'lishadi, yugurib yeladi va oxirida o'lishi ham qayd etilgan. Bu holat kuchli stress, ya'ni distressning tirik organizmga qanday ta'sir etishini ko'rsatuvchi yaqqol misoldir. Agar odamga ham ana shunday kuchli stressorlar davomli tarzda berib turilsa, u o'zini qo'yarga joy topa olmaydi, asab tizimi ishdan chiqadi, qanday bo'lmasin shu azobdan qutilish yo'lini izlaydi. Mahbuslarni kechayu-kunduz kuchli shovqin yoki yorug'lik ta'sirida qiynoqqa solish yo'li bilan ularni qilmagan gunohlariga nisbatan tan oldirish holatlari ham manashu mexanizm asosida ro'y beradi.

Demak, har qanday stressorning ta'sir etish kuchi tegishli darajadan oshganidan keyin asab tizimida o'ziga xos qo'zg'alish o'chog'i yuzaga kelib, fiziologik qonuniyatlarga ko'ra, bu holat ko'pgina xayotiy markazlar ishini buzib odam baqirib-chaqirib o'zini boshqara olmaydigan bo'lib qoladi.

Ba'zan yuzaga kelgan qo'zg'alish o'chog'i ta'sirida yurak qon tomirlari, hazm a'zolari ishini boshqaruvchi markazlar faoliyati buzilib yurak urishi tezlashadi (taxikardiya) qon bosimi ko'tariladi (arterial gipertoniya yoki xafaqon), ko'ngil aynib qusish, ich ketish yoki ich qotish sodir bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday tovush to'lqinlari havo orqali tarqalib, o'rta quloqdagi nog'ora pardasini o'ziga xos tebranma harakatga keltiradi. Ushbu tebranma harakat esa o'z navbatida eshitish suyakchalari orqali ichki quloq chig'anoq qismining maxsus sezuvchi nerv uchlarida (retseptorlarda) tegishli elektr potentsiallariga, ya'ni nerv impulslariga aylanadi. Ushbu biotoklarning eshitish nervlari orqali bosh miyaning ensa qismiga yetib borishi bilan ma'lum nerv hujayralari majmuasidan iborat bo'lgan nerv yadrolarida o'ziga xos qo'zg'alishlar yuzaga kelib tovush eshitiladi.

Aytib o'tilgan retseptorlar har bir tovush to'lqiniga monand ravishda biotoklar hosil qiladi. Ushbu biotoklar bir-biridan o'z parametrlari (tebranish amplitudasi, davr chastotasi va hokazo) bilan farq qiladi va markaziy nerv tizimida tegishli nerv markazlari tomonidan qabul qilinadi. Ushbu nuqtalarda yuzaga kelgan har hil qo'zg'alishlar tufayli biz qabul qilingan tovushlarni bir-biridan farqini ya'ni past, baland, yoqimli, yoqimsiz bo'lishini anglaymiz. Yana tovush to'lqinlari biologik qitiqlovchi sifatida ma'lum ta'sir kuchiga ega bo'lgandagina (pog'ona kuchi) tegishli qo'zg'alishni yuzaga keltiradi. Ushbu ta'sir kuchi pog'ona kuchidan past bo'lganida ham (infratovushlar), juda yuqori bo'lganida ham (ultratovushlar) biz hech narsani eshitmaymiz. Ya'ni ular tovush qabul qiluvchi retseptorlarda tegishli qo'zg'alishlarni yuzaga keltira olmaydi.

Kuchaytirgichlardan foydalanilmagan holda chalingan musiqa, so'zlashish, ma'ruza o'qishda tovush kuchi o'rtacha 50-60 db, kuchli musiqa -75-80 db, samolyotlar tovushi, to'p otilishi

## PEDAGOGIKA

150-170 dbga chiqadi. 20-30 detsibilli tovush, shovqin tabiiy hol hisoblanib, ular inson uchun zararsiz bo'ladi. Agar shovqin kuchi 80 db dan oshsa kishi oromi buziladi va shu bois har hil noxush holatlar (quloq og'rishi, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, yurak dukkilashi va boshqalar) sodir bo'ladi. SHovqin kuchining 140 db ga tenglashishi va undan oshishi quloq nog'ora pardasining teshilishiga olib keladi. Shuni alohida aytib o'tish joizki, restoran, choyxona, kafe va shunga o'xshash joylarda o'tkaziladigan o'yin-kulgi, ko'ngil ochar tadbirlarda musiqa va ashulalar maxsus vositalar yordamida o'ta kuchaytirilib, hosil bo'lgan shovqin-suronga bardosh berish ko'pchilikning sog'lig'iga o'ta zararli bo'ladi. Cholg'u asbobini chaluvchilar uchun bu holat, ayniqsa, xavfli, ularning ko'pchiligida eshitish pog'ona kuchi yuqorilashib, ko'p o'tmay og'ir quloqli (kar) bo'lib qolishadi. Musiqa va ashulaning baland qo'yilishi umuman keraksiz bo'lib, hech vaqt bunday holat ular sifatini yaxshilamaydi, tinglovchilarga huzur-halovat bag'ishlamaydi. Buning aksi, tinglovchilarda ularga nisbatan jirkanish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan musiqali stressdan saqlanishda eng muhim vositalardan biri ma'yorida kuchaytirilib ijro etiladigan kuy-qo'shiqlar nafaqat tinglovchilar uchun, balki ijrochilarning o'zlariga nisbatan ham o'ta zararli ekanligini ilmiy asosda tushuntirish bo'lib hisoblanadi. Shunday qilinganida o'tkaziladigan musiqiy tadbirlar tinglovchilarga ko'proq huzur-halovat bag'ishlaydi, ular ma'naviy ozuqa oladi, hordiq chiqarishadi. Eng muhimi bunday tadbirlar kishilar uchun eng qimmatli bo'lgan sihat-salomatlikni saqlab qolishda, qolaversa yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash borasida muhim ahamiyatga ega bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa shunday vositaki, u yangi avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, inson ruhiy olamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, tinglovchi dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa bolaga har tomonlama yordam berishi, tevarak-atrofnı obrazli - emotsional idrok etishi va bola xarakterining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Bolaning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish.
2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy-ritmik malakalarga o'rgatish. Ularda musiqani qabul qilish, his etish va tushunish qobiliyatlarini tarbiyalash.
3. Bolada badiiy – ijodiy qobiliyatni rivojlantirish. Bu vazifalarni barchasini bir-biri bilan o'zaro mustahkam bog'langanligini his ettirish.

Bolalarda musiqa mazmuniga tushunarli munosabatda bo'lish paydo bo'ladi, musiqani tinglashga ishtiyoq tug'iladi. Musiqaviy asarlarni tinglash bolalar ishtirokisiz bo'lmasligi kerak. Musiqa orqali beriladigan kayfiyat ularda javob tuyg'usini uyg'otish kerak. Emotsional jonkuyarlikni tarbiyalash yo'llari turlicha bo'ladi. Mohir metodik usullar – ashula aytish, raqs tushish orqali bolalarga musiqa san'ati his-tuyg'ularni uyg'otish mumkin. To'plangan emotsional musiqaviy taasurotlar qo'shiq aytishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Madaniyat va san'at jamiyat va millat ravnaqining bosh omili va poydevoridir. Har bir insonning madaniyati va ma'naviyatini uning xayot tarzi, moddiy ta'minlanganligi, unga yaratilgan shart-sharoiti belgilab beradi. SHuning uchun ham inson madaniyati va ma'naviyatini shakllantirib borishida adabiyot va san'atning barcha turlari, ayniqsa, musiqa san'ati va madaniyatining tutgan o'rni beqiyosdir.

Tarbiyaviy vazifalar kompleksida mamlakatimiz yoshlarida estetik did va ehtiyojni kamolotga yetkazish muhim rol o'ynaydi. Bu vazifani hal qilishda musiqa madaniyati katta rol o'ynaydi.

Shunday qilib musiqa idrokini tarbiyalash quyidagi hollarda namoyon bo'ladi:

1. Musiqa materialini ajratib olish.
2. Tarbiya va ta'lim metodlarini tizimlashtirish.
3. Ishning turli bosqichlaridan foydalanish.
4. Musiqa asarlarining turli-tuman tematikalaridan foydalanish (ijtimoiy, tabiat, mehnat, bolalar turmushi, ertaklar va boshqalar).
5. Musiqa asarining obrazi soni va formasiga qarab asta-sekin murakkablashib borishi.

So'nggi yillarda ilmiy tadqiqot ishlarining ko'pida, ta'lim jarayonidagi islohotlar shunga olib keldiki, yoshlarning milliy musiqaga o'rgatish (musiqiy ta'lim yo'nalishlarida) asosiy mashg'ulotlardan biri, deb qarashga e'tibor kuchaytirildi. Buning natijasida o'zga xalqlar musiqa san'ati va madaniyatini o'rganish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmadi.

Musiqa ijrochilari o'rtasida, kuy bastalashda, qo'shiqlar matnini tayyorlashda bir hillik yoki o'xshashlik ko'zga tashlana boshladi. Bastakor ijod qilmoqchi yoki kuylar yaratmoqchi bo'lsa,

millatning tarixi, san'ati, musiqasini yaxshi o'rganmog'i lozim. Chunki yaratadigan musiqa boshqa millat musiqasiga o'xshab qolmasligi kerak. Aks holda bastakor o'z nomini, sha'nini, millatni oyoq osti qilgan bo'ladi. Musiqa san'atida yangilik yaratmoqchi bo'lsa, albatta, boshqa millatlar musiqasiga murojaat etish shart emas. Chunki millatimizning musiqasi dunyo musiqasi xazinasidan ham boyroqdir. Agar Shashmaqom, Olti yarim maqom, Chormaqom, dostonlar, xalfa yo'llari, laparlar, mumtoz klassik yo'llar va millatimiz bastakorlari yaratgan musiqalarni bir bor ko'zdan kechirilsa bastakor juda ko'p ma'lumot olgan bo'ladi.

Milliy musiqa san'atimizda yevropa, sharq musiqalari, operalari, simfoniyalari yoki jaz, rep va hokozolardan qolishmaydigan, aksincha, ulardan murakkabroq, go'zalroq asarlar mavjud. Biz boshqa millat musiqalarini ijro etishimiz mumkin. Lekin ular bizning maqomlarimiz yoki mumtoz musiqamizni ijro etishlari juda qiyin. Chunki bizning soz san'atimiz juda murakkab san'atdir. SHuning uchun ham, musiqa yaratilayotganda qaysi millat vakili ekanini va ota bobolarimiz kimlar ekanligini unutmaslik kerak. O'rta asr olimi, mutafakkiri Forobiy O'rta Osiyo, Eron va Arab musiqa san'atini yaxshi bilgan, u xalifalikni bepoyon xududida juda ko'p tarqalgan musiqa asboblari haqida ilmiy asoslangan tadqiqotlar natijasini yozib qoldirgan. U o'zining "kitob al-musiqiy al-Kabir" nomli uch kitobning ikkinchisida aynan zamonaviy musiqiy sozlar haqida suhbat qurib, usul qoidalarining qaysi vaqt ishlatish zarurligini ko'rsatib o'tadi. E'tiborli tomoni shundaki, har bir musiqa asbobining imkoniyat darajasi ilmiy asoslab beriladi. Forobiy musiqa sohasidagi tadqiqotchilar oldiga ham muhim talablar qo'ygan. Uning fikricha, "nazariy bilimlardan xabardor bo'lgan yetuk san'atkor – qaysi bilimida bo'lmasin uch narsaga ega bo'lishi kerak:

1. Har bir bilimning usul va qoidalarini to'la bilishi lozim.

2. Shu bilimning turli holatlarida hosil bo'lgan usul va qoidalarining natijalarini sharh va izoh etishga qobil va iste'dodli bo'lishi kerak.

3. Musiqa san'ati haqida noto'g'ri nazariyaga ega bo'lgan yozuvchilarning, noto'g'ri nazariyalarini tanqid eta bilsin va xatolarini oydinlashtira olsin". Bu nazariyalar o'z o'rnini bilan juda muhimdir. Chunki musiqachi musiqani qaysi sohasini o'rganmasin avvalo o'sha sohaning usul va qoidalarini tushinib olishi, yetuk bilimlar majmuasiga ega bo'lishi kerak. Egallagan bilimni turli holatlarda qo'llay olish mahorati bo'lishi ham Forobiy tomonidan ilmiy asoslab berilgan. U o'z zamonasi va undan keyingi zamonlarda yaratilgan musiqa asarlari tuzilmasini to'g'ri talqin qiladigan, tahlil xulosalar beradigan mutaxassislar bo'lishiga da'vat etganki, bu musiqani rivojlanib takomillashib, samarali bo'lishiga olib keladi.

Inson ruhiy-ma'naviy ehtiyoji bois erkinlik va adolatga, mehr-muhabbat, go'zallik va kamolotga intiladi, ijod qiladi.

"...Xalqimizning ma'naviy saviyasini oshirish, yosh avlodni yuksak insoniy g'oyalar, ona Vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishda musiqa san'atining o'rnini va ahamiyati beqiyosdir". Zero, o'tmishdagi musiqiy ijrochilik an'analarni tiklash, zamonaviy sharoitlarda saqlab qolish, o'zbek milliy musiqiy asarlari va sozlarini xorijiy mamlakatlarda namoyish etish, musiqa ta'limida yangi an'analarni tarkib toptirish, xalq ma'naviy merosini asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazish, jamiyat hayotida musiqa madaniyatining tutgan o'rnini tahlil etish dolzarb vazifa hisoblanadi. "Yangilanish jamiyat va kishilarning ehtiyoj hamda manfaatlarini ifodalaydigan maqsadga muvofiq, keng qamrovli, ayni paytda, murakkab va ziddiyatli jarayondir". Ma'naviy yangilanish jarayonida ijtimoiy jarayonning barcha jabhalarida rivojlanishga keng yo'l ochiladi. Har bir shaxsning ijodiy imkoniyatlari uchun sharoit paydo bo'ladi. Jamiyatda ma'naviy yangilanishlar inson tafakkuri, dunyoqarashi va erkin yashashi uchun yuksak maqsadlarga yo'naltiradi. Falsafiy jihatdan ma'naviy yangilanish jarayonlari, o'zida ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ahloqiy, tashkiliy sohalar bir butunligini, kutiladigan o'zgarishlarning aniq oqibatlarga olib kelishini, ularning davr bilan bevosita uzviy aloqadorligi, tadrijiyligi va, nihoyat, bu o'zgarishlarni inson va jamiyat tomonidan tarixiy zaruriyat sifatida idrok va e'tirof etilishini nazarda tutadi.

Yoshlar tarbiyasi jamiyatdagi muhim masaladir. Darhaqiqat, inson ma'naviy tarbiyasi bir necha bosqichlarga kechadigan jarayondir. Bu bosqichlar ichida umrning yoshlik bosqichi alohida ahamiyatga egadir. Yoshlik insonning eng nozik davri hisoblanib, insonning quvvatga to'lgan va harakatchanligi ziyoda bo'lgan vaqtidir. Shu bilan birga bu davr insonning hayot yo'llarining, chorrahasida turgan payti hamdir. Agar, o'sha chorrahada yaxshi yo'lga kirib olinsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun juda katta yaxshilik sari yuzlangan bo'ladi. Agar, Alloh taolo ko'rsatmasin,

## PEDAGOGIKA

mazkur chorrahada yomon yo'lga burilib ketsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun ko'ngilsiz hodisalar sari qadam qo'ygan bo'ladi.

**XULOSA**

O'zbek milliy musiqa merosi o'zbek yoshlari ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, endilikda yoshlar tarbiyasida milliy musiqa ilmini chuqur egallashlari, ijodiy yangiliklarini kengaytirishlari maqsadga muvofiq. musiqa tarbiyasi shaxs sifatida shakllanayotgan bolalarning, qalbida milliy ruhni kamol toptirish, ma'naviy va axloqiy madaniyatni, musiqiy didni shakllantirish, musiqiy tasavvurlarini yanada boyitish hamda ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini, tashabbuskorlik qobiliyatlarini kamol toptirishdir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni.
2. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997, 20-29 betlar.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
4. Toshqulovich, P.R., & Ugli, K.J.S. MUSIQA O'QITUVCHISI VA UNING KASBIY MAHORATI. // Academic research in educational sciences, 2020. (4), 703- 712.
5. Қораев, С. Б. Профессионал таълимда ўқув амалиётларини ташкил этишининг ўзига хос хусусиятлари. // Academic research in educational sciences, 2020 Karimov I.A. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch. Toshkent: 2008.